



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova- pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva- filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova- siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov- geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarni shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Abfazova K.S. Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 378/47

TASVIRY SANAT O'QITUVCHISINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGIN TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Bekmuratov Ne'matjon Ahmadjonovich, Odiljonov Umarbek Uktamjon o'gli

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada dolzarb muammo, ya'ni tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy va uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar:

rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik, miniatyura, san'at, madaniyat.

Аннотация.

В данной статье рассматривается актуальная проблема, а именно теоретические и методологические основы совершенствования профессиональной и методической подготовки преподавателей изобразительных искусств.

Ключевые слова:

живопись, скульптура, архитектура, миниатюра, искусство, культура.

Abstract.

This article discusses a currently relevant issue, namely, the theoretical and methodological foundations of improving the professional and methodological training of a visual arts teacher.

Keywords:

painting, sculpture, architecture, miniature, art, culture.

O'zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqala, Bolalik tepa, Ayritom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a kabi joylarda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasidir [1].

Amir Temur va temuriylar davrida tasviriy san'at turlaridan me'morchilik, miniatyura gullab-yashnadi. Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Ovro'pa mamlakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Natijada, Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Bu davrlarda estetik saviyasiga yuksak darajadagi miniatyura san'ati namunalari yaratilgan. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlar o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablari an'analari asosida yaratilgan. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustozning shogirdga bergan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi [1;152 b]. Bu esa umumiy tarzda qat'iy tizim negizidagi badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasada, badiiy yo'nalishdagi ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzod kabi mashhur mussavvir, naqqosh, xattot va boshqa badiiy kasb sohiblarining boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yurtimizda tasviriy va amaliy san'at dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi «Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-4688-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlashga qaratilgan quyidagi dolzarb vazifalar belgilandi:

davlat oliy va professional ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari, bolalar musiqa va san'at maktablarining tasviriy va amaliy san'at, dizayn, san'atshunoslik hamda muzeyshunoslik yo'nalishlari bo'yicha pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish;

badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi pedagog va mutaxassislarni bilimlarini mustahkamlash uchun kurslarining o'quv-metodik bazasini shakllantirish va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;

tasviriy san'at asarlarining sifatini ta'minlash, tasviriy san'at ijodkorlarining salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarish;

san'at asarlarida milliy va umuminsoniy an'analarning yuksak darajada ifoda etilishiga erishish;

chet ellardagi ko'rgazma va muzeylarda saqlanayotgan noyob asarlar bilan yaqindan tanishish, nusxa ko'chirish hamda tajriba almashish maqsadida xorijiy mamlakatlarga oliy rassomlik kursi yosh ijodkorlarining ijodiy safarlarini tashkil etish;

yurtimiz muzeylari fondlarini yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy san'at asarlari bilan muntazam boyitib borishga ko'maklashish.

Yuqorida qayd etilgan dolzarb vazifalar bevosita oliy badiiy pedagogik ta'lim, xususan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonga qadimiy badiiy kasbiy an'analarni zamonaviy ta'limiy tendensiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etilishini taqozo etadi. Shu ma'noda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish istiqbolini belgilashning ilmiy asoslangan metodik tizimini ishlab chiqish uchun real holatini maqsadli o'rganish va tahlil qilish bugungi kun uchun badiiy pedagogika fani uchun dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Yuqoridagi omillarga ko'ra tadqiqotda tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan o'zbek, rus va xorijlik tadqiqotchilar, rassomlar, san'at namoyondalarining asarlari, shu kunga qadar chop etilgan adabiyotlardagi nazariy qarashlar va ilgari surilgan metodik yondashuvlarni o'rganish va tahlil asosida ma'lum bir miliy g'oyalarni ilgari surishga ustuvorlik berildi.

Tasviriy san'atning asosiy vazifasi - yoshlarda tasvirlash mahorat qirralarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. U o'quvchidan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi. Bunda tasviriy san'at o'qituvchilari qalamtasvir (grafika)dan yetarli bilim, malaka hamda ijodkorlik saviyasiga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'lumki, qalamtasvir tasviriy san'atni o'zlashtirishda bosh mezon va asos bo'lishi bilan birga alohida san'at turi sifatida ham xarakterlidir. Qalamtasvir sirlarini yaxshi bilgan amaliy san'at ijodkorlari hamda pedagoglar o'z fikr-tuyg'ularini tezroq, shuningdek, aniqroq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagog olim S.Abdurasilov «Tasvirlash bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir», deb bejiz aytmagan [2]. Shunga ko'ra bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining metodik tayyorgarlik tuzilmasida grafik savodxonlik hamda atrof-muhitni estetik idrok etishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasviriy san'atning sir asrorlarini mukammal o'zlashtirishda birinchi navbatda tasviriy san'atning asosi hisoblangan qalamtasvirdan quyidagilarni bilishi talab qilinadi:

grafika san'ati haqida nazariy ma'lumotlar;

qalamtasvirda ishlatiladigan materiallar, ularni tayyorlash qoidalari va yo'l-yo'riqlarini bilish;

naturadan qalamtasvirda rasm ishlashning nazariy asoslari haqida yetarli bilimlarga ega bo'lish;

tasvirni qurishda qalamtasvir perspektiv qisqarish qonuniyatlari borasidagi bilim va nazariy tushunchalarga ega bo'lish;

qalamda bajarilayotgan tasvirning kompozitsiya yechimini ifodalay olish;

qalamtasvirda bajarilgan ishni umumlashtirgan holda nihoyasiga yetkazish;

qalamtasvirda bajarilgan ishga shakl berish yo'llari va uslublari kabi bir qator maqsad va vazifalari mavjud [3]. Bu vazifalar umumiy holatida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligi tuzilmasining muhim komponentlari hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligi strukturasi qalamtasvirning ahamiyatini taniqli rassom va haykaltaroshlar e'tirof etganlar. Jumladan buyuk haykaltarosh Mikelandjelo Buanorottining «Qalamtasvir bu rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikning eng yuqori nuqtasi va barcha fanlarning ildizi va manbaidir», degan so'zlari har bir bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi uchun dasturul amaldir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi tuzilmasi tarkibida asosiy komponentlar sifatida, quyidagi kompetensiyalar shakllantirish lozim:

-tasvirlanayotgan buyumlarni o'ziga xos jihatlarini ko'ra bilish, ularni o'zaro taqqoslash;

- tasvirlanayotgan buyumlarni geometrik shakli, konstruktiv tuzilishini tarkibiy qismlari, rangi va fakturasini tasvirlash;

- buyumlarni tasvirlashda ularni tahlil qilish asosida real holatda chizish;

- egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda bosqichma-bosqich qo'llay olish.

Shu o'rinda italyan olimi va buyuk rassomi Leonardo da Vinchining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida: «Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir»,- degan fikrni keltirib o'tish o'rinli [4]. Leonardo da Vinchining o'zining asarida qalamtasvirga oid «Tajribasiga va ko'zlariga ishonib, fikr-o'ysiz ravishda ko'chirib chizuvchi rassom, xuddi qarshisidagi qo'yilgan predmetlari, ularni bilmagan holda aks ettirayotgan ko'zgu kabidir»,-deya ta'kidlagan edi.

K.Rojers esa (1902-1987) A.Maslou fikrilariga o'xshash qarashlarni bildirib o'tadi va unga ergashadi. Uning fikriga ko'ra, ijodiylikning universal hodisa ekanligiga ishonadi. Chunki u milliy hodisa emas, ya'ni bitta millatga xos bo'lgan, boshqa millatlarda mavjud bo'lmagan hodisa emas. Ijodiylik umumbashariy hodisadir. Shu bilan birga, ijodiylik mavjud bo'lishi uchun sotsium insonlar va jamiyat birgalikda yashaydigan odamlar (bir mamlakat, bir shahar, bir uy), umumiy manfaatlar, mulk, resurslarga ega bo'lgan mafkuraviy jamoa) bo'lishi zarur. Ijodiylik jamiyat ehtiyojlari asosida rivojlanadi. Olim universallik aynan jamiyat mahsuli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Zero jamiyatning o'zida ijodkor bo'lish uchun barcha sharoitlar mavjuddir. Chunki hayotga munosabat, hayotda yashash malakalari ijodiylikni har qadamda talab qilishi mumkin. Uning fikriga ko'ra, ijodiylik belgilangan maqsadli xatti-harakatlar majmui orqali yangi mahsulotni yaratish jarayonidir. Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarini ustida muntazam ishlashlari zarurligini ta'kidlaydi.

XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan mashhur rus rassomi K.P.Bryullov «Rassom bo'lish uchun, avvalambor, qalamda rasm chizishni bilish kerak, chunki qalamtasvir san'atning asosini tashkil etadi»,-deb ta'kidlab o'tgan.

Rus rassomi va pedagogi, professor P.P.Chistyakov yosh rassom va pedagoglarga «San'at ilmsiz yashay olmaydi, ilm-fan o'zining yuqori nuqtasida san'atga aylanadi», «Shakllarni ko'ra olmaydigan har qanday kishi chiziqni ham to'g'ri chiza olmaydi». «Predmetni borligicha va bizning ko'zimizga qanday ko'rinayotgan bo'lsa, shundayligicha tasvirlash hamda bir paytda uning «ko'rinishi» va «mohiyatini» ham ifodalash kerak»,-degan edi [5].

Rus rassom va pedagogi A.A.Deyneka yosh rassomlarga «Qalamtasvir va rangtasvirning asoslari kompozitsiya qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liq» ligini takidlab o'tgan edi. Kompozitsiya qonuniyatlarini o'zgalashtirishning dastlabki bosqichi, shubhasiz natura bilan bog'liq. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligi tizimida ularda naturani kuzatish, tahlil qilish, tasvirlashga oid malakalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Buyuk rus rassomi E.Repinning «Betinim ravishda naturadan chizish ana shu eng haqqoniy va oliy maktabdir», degan so'zlari fikrimizning isboti.

Rus rassomi va pedagogi N.A.Dobrolyubovning «Qalamtasvir» nomli asarida «Ma'lumki, qalamtasvir - har bir rassomning professional mahoratining asosidir», «Chiziq va tus (ton) - qalamtasvirdagi asosiy tasvirlash vositalari hisoblanadi», «Qalamtasvirning birinchi bosqichida biz, asosan, chiziqlardan foydalanamiz. Chiziq yordamida kompozitsiyani topamiz. Chiziqlar vositasida predmetlarning nisbati va shakli, aniqlanadi. Shuningdek, chiziq orqali fazoviy muhit quriladi va bu muhitda turli detal va obyektlar joylashtiriladi. Yana chiziq yordamida

biz predmetning shakl-tuzilishini, ya'ni narsaning konstruktivasini tahlil qilamiz», «Ton»-tus termini ostida shaklning yorug'ligi xususiyati tushuniladi. Bu o'rinda qalamtasvirdagi tus bir nechta funksiyani bajaradi. U shaklning soya-yorug'lik bilan modellashtirish, siluetini yuzaga chiqarishda, predmetni ochdan-to'qgacha bo'lgan o'zgarishlarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi,-deya ta'riflaydi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligi davomida chiziq va tus (ton)ni to'g'ri tahlil qilish va amaliy faoliyatiga tadbiiq qilish ahamiyatlidir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasviriy san'atning nazariy asoslari tarkibidagi kompozitsiya, rangshunoslik asoslari, perspektiva qonuniyatlarini bilishi va ijodiy faoliyatida tatbiiq eta olishi ham uning kasbiy metodik tayyorgarligi tuzilmasining muhim kompotenti hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarlik tuzilmasida plastik anatomiya haqidagi bilimlarni, shuningdek perspektiva qoida-qonunlarini mukammal egalashlari ularning pedagogik faoliyatining pedagogik kafolatidir. Uyg'onish davri rassomlarining buyumlar, obyektlar, ularning nisbatlari, perspektiva, anatomiya, rangshunoslik kabi ilmlarning nazariyasi va amaliyotini chuqur o'zlashtirishga intilishlari bejizga diqqat markazida turgan emas. Ular o'zlarining nazariy va amaliy ishlarida optika, matematika va anatomiya kabi fanlarning yutuqlariga tayanganlar.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi jismlarning geometrik tuzilish hamda narsalarning tarkibini aniq va tabiiy holatidagidek ko'rinishini nur va soya orqali ifodalaydi. Misol tariqasida natyurmort janrida tasvirlanayotgan predmetlarni yorug'lik tushayotgan tomoniga qarab o'zgarishiga, buyumlarni materialligiga, egriliklar yoki tekisliklar joylashuviga e'tibor berishi kerak.

Perspektiva buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan. Ma'lumki, har bir buyum, u qanday shaklga ega bo'lishidan qat'iy nazar, perspektiva qonunlariga asosan qisqarishi mumkin. Lekin ko'p hollarda talabalar bu nazariyaga e'tibor bermaydilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talaba aylana shaklli buyumlarni tasvirlashda, uning fazoviy holatini to'g'ri topa olmaydi va buyumning perspektivaga asosan qisqarishida qo'pol xatoga yo'l qo'yadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari bilimlarini tasviriy san'at turlarini bilish orqali mustahkamlashda tasviriy-ifodaviy vositalar san'atning sir asrorlarini tushuntira olish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarlik tuzilmasida rangtasvir san'ati kabi haykaltaroshlik asarlarini ham o'zlashtirib borishi nazarda tutiladi. Ushbu san'at turi ham hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykaltaroshlik san'ati o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. To'liq yumaloq haykallar (har tomondan ko'rish mumkin bo'ladi);

2. Releflari - bo'rtma (tekislik ustiga ishlanib, yuzadan qisman bo'rtib chiqqan) haykallar. Bo'lajak mutaxassis tosh, metall, gips, yog'och, vosk (mum), sim kabi hom ashyolarni kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali haykaltaroshlikning texnik usullarini o'rganadilar.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari kasbiy-metodik tayyorgarlik tuzilmasida tasviriy san'atning grafika turining xususiyatlari, shuningdek, uning boshqa turlaridan qo'llaniladigan

texnik usullar grafikaning tasviriy ifodaviy vositalari va ularni o'quvchilarga tushuntirishning mazmuni va ma'nosi haqida yetarli kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.

Grafikani chuqur o'zlashtirish natijasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi grafika yo'nalishida kelajak faoliyatida mustaqil tarzda kompozitsiya yarata oladi va tasviriy san'at darslarida tushuntirib boradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik faoliyatini takomillashtirish tuzilmasida tasviriy san'at tarixi, uning tur va janrlarining xususiyatlarini o'quvchilar yosh toifasi, tayyorgarlik darajalariga monand tarzda taqdim etish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik faoliyatini takomillashtirishning metodologik asoslari ilmiy dalillar hamda amaliy tajribalar natijalari asosida amalga oshirilgan maqsadli o'rganish hamda natijalarni tahlil qilish borasida tasviriy san'at yo'nalishi talabalariga qo'yilgan kasbiy malakalar, malaka talablarni belgilangan me'yoriy talablariga muvofiqligiga aniqlik kiritish muhim. Bu borada, birinchi navbatda Davlat ta'lim standarti, dastur va rejalar tahliliy o'rganilishi lozim.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishini tamomlagan bitiruvchilar umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimida qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi, kompozitsiya, plastik anatomiya, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, chizma geometriya, chizmachilik, muhandislik kompyuter grafikasi, grafik tasvirlash asoslari va 3D modellashtirish, texnik chizmachilik, muhandislik grafikasi darslaridan o'rnatilgan tartibda dars berishi mumkinligi malaka talablarida belgilab qo'yilgan. Demak, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarlik mazmuni va tuzilmasida yuqorida keltirilgan yo'nalishlardagi kasbiy-pedagogik faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish talab etiladi. Bundan tashqari, egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalari sifatida ta'lim-tarbiyaning turli-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlashni bilishi kabi kompetensiyalar ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining malaka talablarida belgilab berilgan.

Yosh pedagoglardan tasviriy san'atning o'ziga xosliklarini tushunish, turli tipdagi ta'lim muasasalarida o'quvchilarni o'qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalari, turli badiiy tizimlar nazariyasi va tarixiga oid zamonaviy bilimlarni, badiiy ijodiy faoliyatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish kabi kompetensiyalarga ega bo'lishini talab qiladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi tuzilmasi va mohiyatini takomillashtirishda sohaning tarixiy milliy pedagogik ildizlariga murojaat qilamiz.

Umumiy o'rta ta'limning 1-4, 6-7-sinf o'quvchilari uchun yangi avlod darsliklari yaratildi. Ushbu darsliklar zamonaviy bilimlarni qamrab olgan, Finlandiya, Fransiya, Germaniya singari rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'zida jamlagan.

Demak, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarlik tizimida yangi avlod darsliklari bilan ishlash kompetensiyalarini tarkib toptirish zarurligi yuzaga keldi.

Ayni paytda shuni alohida ta'kidlash kerakki, yangi avlod darsliklari bir qator ijobiy va salbiy xususiyatlarga ham ega. Jumladan, ijobiy xususiyati sifatida:

- o'quvchilarni mustaqil tarzda tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

- ijodiy mazmundagi topshiriqlarni mustaqil bajarishga yo'naltirilganligi;
- darslikda qo'shimcha tarzda o'qituvchi kitobi hamda o'quvchi daftari ilova qilinganligi;
- amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonini tasvirlovchi raqamli video materiallar taqdim etilganligini e'tirof etish mumkin.

Yangi avlod darsliklarida quyidagi kamchiliklar mavjud:

- tashqi effektga berilish natijasida darslik parametrlari standartlariga amal qilinmagan;
- ayrim parchalarda didaktik funktsiya bajaruvchi o'quv materiallari berilmagan;
- o'quv materiallari (matni) bilan illyustrativ materiallarning optimal nisbati saqlanmaganligi uchun o'quvchilarda tasviriy san'at tarixi va nazariyasiga oid kerakli ma'lumotlar olish imkoniyati cheklangan.

O'quvchilar uchun ishlab chiqilgan yangi avlod 1-sinf darsligining har bir nazariy ma'lumotini amaliy mashg'ulot daftarida ijodiy sinab ko'rish imkoniyati taqdim etilganligi o'quvchilarning ijodiy tasavvurini boyitishda, kreativ va ijodiy sifatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Darslikning mashqlarni bajarish sahifalarida geometrik shakllardan foydalanib rasm chizish topshiriqlarini berish orqali STEAM ta'limni joriy qilish, fanlararo integratsion jarayonni ta'minlash masalasi ilgari surilgan. Darslikda o'quvchilarning fan, texnologiya, qurish-yasash, tasviriy san'at, matematika fanlari integratsiyasi ifodalangan. Ranglarni hosil qilish mavzusi tushunishga oson va amaliy natijalari ham keltirilgan.

Darslikda berilgan o'ziga hosliklardan biri shundaki har bir vazifa o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirishga, tasviriy faoliyatga tayyorlashga, fanning mohiyatini to'liq ochib berishga xizmat qilgan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish, o'quvchilar bilan tizimli ishlash texnikasini rivojlantirish, o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda metodik yondashuvni ta'minlash dolzarb va o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri sifatida yangi avlod darsliklaridan foydalanish jarayonining samarali kelishini o'ziga xos pedagogik kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Н. У. Санъат тарихи: Икки жилдлик. /Т. К. Қўзиев умумий таҳрири остида. –Т.: «Санъат», 2001. –192-152 б.
2. Abdurahmonov G'. Kompozitsiya. –Т., «TDPU rizografi», 2009. –247-48 б.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Amaliy mashg'ulotlar – Т.: «ALQACHI», 2007. –144 б
4. Boymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. – 120
5. Drapeau, Patti. Sparking Student Creativity: Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving. ASCD, 2014. –188 p

